

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

A. QURONBEKOV, A. VOHIDOV, T. ZIYAYEVA

FORS TILI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*

**“Musiq” nashriyoti
Toshkent
2006**

81.2 Pers

K 80

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti o'quv-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

A.Quronbekov, A.Vohidov, T.Ziyayeva

K 80 Fors tili: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik /

A.Quronbekov, A.Vohidov, T.Ziyayeva;– T.: “Musiqqa”, 2006 – 568 b.

I. 1,2 muallifdosh.

BBK 81.2Pers ya722

Filologiya fanlari doktori, professor A.Quronbekov tahriri ostida

Forscha matn muharriri – *Seyyed Javad Jalali-Kiyasari*

**Taqrizchilar – *M.Imomnazarov,*
filologiya fanlari doktori,
professor**

***X.Uralov,* filologiya
fanlari nomzodi, dotsent.**

№ 388 – 2006

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

Qat’iy buyurtma.

**© O‘zbekiston davlat konservatoriyasining “Musiqqa”
nashriyoti, 2006 y.**

وزارات آموزش عالی و متوسط مخصوص جمهوری ازبکستان

احمد قرانییکوف، عوض بیک واحدوف، توخته خان ضیایوا

زبان فارسی

از طرف وزارت آموزش عالی و متوسط مخصوص جمهوری ازبکستان

بماتابه کتاب درسی زبان فارسی توصیه شده است

ویراستر کل: احمد قرانییکوف

ویراستر متن فارسی: سید جواد جلالی کیاسری

انتشارات "موسیقیه"

تاشکند

۲۰۰۶

Ushbu darslik filologiya (fors tili va adabiyoti) ta'limi yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchilarga mo'ljallangan. Darslik ta'limning birinchi yili materiallari, ya'ni fors tili grammatikasi asoslarini, og'zaki so'zlashuv malakasini shakllantiruvchi va mustahkamlovchi matnlar va dialoglarni o'z ichiga oladi.

Kitobdan oliy o'quv yurtlarining fors tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan talabalari hamda fors tilini mustaqil o'rganayotganlar ham foydalanishlari mumkin. Darslikdan foydalanishda qulaylik yaratish uchun kitob oxiriga mashg'ulotlar leksik birliklarini qamrab olgan lug'at ilova qilingan.

SO‘Z BOSHI

Fors tili O‘zbekistonda qadim zamonlardan o‘rganilib kelmoqda. O‘tmish madaniy merosimizning kattagina bir qismi fors tilida yozilgan.

Hozirgi paytda fors tili O‘zbekistonda ilmiy va amaliy maqsadlarda o‘rganiladi.

Sizga taqdim etilayotgan ushbu «Fors tili» darsligi fors tilini nazariy va amaliy maqsadlarda o‘rganayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan. Bu darslikdan Toshkent Davlat sharqshunoslik institutida fors tilini o‘rganuvchi guruhlarining 1-kurs va fors tilini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘rganayotgan universitetlarning filologiya va tarix fakultetlari va litseylari talabalari foydalanishlari mumkin.

Darslik II qism, 25 darsdan iborat bo‘lib, har bir dars 5-6 soat mashg‘ulotga bo‘lingan. Lekin talabalarining bilim saviyasiga qarab, 8-10 soat ham mashg‘ulot o‘tkazish mumkin.

Kitobning birinchi qismi beshta darsdan iborat bo‘lib, asosan e‘tibor fonetika va grafikaga qaratilgan.

Fors tilining fonetik sistemasi bir qarashda o‘zbek tili fonetik tizimi bilan bir xilday ko‘rinadi. Lekin aslida unday emas. Ayniqsa, cho‘ziq unli fonemalar o‘zbek tili fonemalaridan keskin farq qiladi. Fors tili fonetik sistemasini o‘zbek o‘quvchisi va talabalariga o‘rgatayotganda mana shu keskin farqqa alohida e‘tibor berish kerak. O‘qituvchi to hamma talabalar bu fonemalar talaffuzini to‘g‘ri o‘rganib olgunga qadar mashq qildirishi kerak.

Unli fonemalarda o‘zbek talabalari o‘rganishi qiyin kechadigan yana bir fonetik jihat bu «ye» va «i», «o» bilan «u», «ye» bilan «a»ning ishlatilishi va talaffuzidir. Buning sababi o‘zbek tilidagi fors va arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning o‘ziga xos talaffuzidir. Macalan, o‘zbek tilidagi "Eron", "muallim" "tuhfa", "kitob" so‘zlari fors tilida "Irān", "moallem", "tohfe", "ketāb" deb talaffuz qilinadi. Lekin shuni ham aytish kerakki, bu farqlar muntazam emas, balki ba‘zi o‘rinlarda bu fonemalar fors tili va o‘zbek tilida o‘zaro hamohangdir. Masalan, "nur", "pir", "šer", "qalam" so‘zlari fors va o‘zbek tillarida bir xil talaffuz qilinadi.

Undosh fonemalardan "q", "γ" fonemalarining farqini bilib olish o‘zbek tolibi uchun qiyin kechadi.